
Bag'dod tumani mahallalaridagi xotin-qizlar faollari uchun o'quv seminari o'tkazildi.

"Oila va xotin-qizlar" qo'mitasi boshqarma boshlig'i R.Mirholiqova tuman mas'ullari ishtirok etgan seminarda xotin-qizlar faollari faoliyatini yanada samarali tashkil qilish, ularning ish jarayoniga axborot texnologiyalari va tizimlarini faol tatbiq etish, elektron platforma bilan ishlash ko'nikmasini oshirish kabi masalalar yuzasidan taqdimotlar qilindi. Seminar davomida mahalla fuqarolar yig'inlaridagi xotin-qizlar faollari o'zlari amaliyotda duch kelayotgan muammoli holatlar yuzasidan savollar berishdi va ularga batafsil javob olishdi.

2024-08-01 21:39:14